



NOZIL XO‘JANDIY DEVONIDA AXLOQIY-DIDAKTIK MAVZUDA YOZILGAN ASARLARNING G‘OYAVIY-BADIIY XUSUSIYATI

Muallif: Abdulvosit Gulobov ¹

Affiliyatsiya: Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti
tayanch doktoranti ¹

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.20208721>

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada XIX asr Qo‘qon adabiy muhitida ijod qilgan yirik shoirlardan biri – Avaz Muhammad Noziliy Xo‘jandiy nazmiy namunalarning g‘oyaviy-badiiy xususiyatlari yoritilgan. Shoir devonida uchraydigan diniy-tasavvufiy hamda axloqiy-didaktik mazmundagi she‘rlarning umumiy g‘oyaviy yo‘nalishlari va badiiy ifoda xususiyatlari tahlil etilgan.

Kalit so‘zlar: Qo‘qon, qo‘lyozma, devon, nazm, axloqiy-didaktik, diniy-tasavvufiy, 12080/2 nusxa.

KIRISH

Ikki tilda ya‘ni tojik va o‘zbek tilida ijod etgan Avaz Muhammad Nozil Xo‘jandiy XVIII asr oxiri XIX ikkinchi yarmida yashab ijod etgan zullisonayn shoir hisoblanadi. Ushbu ijodkor Qo‘qon adabiy muhiti vakillaridan biri sifatida, adabiy muhitga xos bo‘lgan tanqidiy va satirik adabiyot rivojiga o‘zining “Hajviyotnoma” asari va devonidagi lirik merosi orqali munosib hissa qo‘shgan deyishimiz mumkin. Uning devonlarida g‘azal, masnaviy, ruboiy asosiy o‘rinni egallaydi. Noziliy devoni an‘anaviy hamd, na‘t, munojot qismlari bilan boshlanadi.

Nozil Xo‘jandiy devonidagi nazmiy namunalarning mavzu tasnifiga otishdan oldin o‘sha davr adabiy muhitida keng tarqalgan she‘rlarning mavzusiga to‘xtalib o‘tsak. Bu haqida “O‘zbek adabiyoti tarixi” (XVIII asrning oxiri- XIX asr birinchi yarmida) kitobida quyidagi asosli ma‘lumotlar keltiriladi: “XIX asr birinchi yarmidagi Qo‘qon adabiy muhitida lirik she‘rlar yozgan shoirlar juda ko‘p edi. Bu davr lirikasida muhabbat mavzuida yozilgan she‘rlar katta o‘rin egallaydi. Bu she‘rlarda garchi tor ichki kechinmalar asosiy o‘rin olgan bo‘lsa-da badiiylik jihatidan ular ancha yuqori turar edi. Lekin ayrim shoirlar sevgini qanchalik go‘zal ifodalarda tasvirlagan bo‘lmasinlar, tor ichki kechinmalarni bayon etishdan yuqori ko‘tarila olmaganlar. Shuning uchun ham ularning nomlari garchi ma‘lum bo‘lsa-da, devonlari xalq orasida mashhur bo‘lmagan.

Aksincha, o‘z asarlarida katta-katta ijtimoiy masalalarni ko‘tarib chiqqan shoirlarning devonlari xalq o‘rtasida keng yoyilib, asarlari avloddan-avlodga o‘tib kelgan. Bu shoirlar zulm va reaksiyaga qarshi chiqqan ijodkorlar edilar. Ular lirik poeziyada ijtimoiy mavzularni baralla ko‘tardilar. Faqat o‘z qalblarininggina emas, shuningdek, xalq qalbining hayajon va iztiroblarini tarannum etdilar. Chunki ular xalq bilan hamnafas ijodkor edilar” [1:61].

Nozil Xo'jandiy she'riyatini o'rganish va tahlil qilishimiz uchun asosiy manba uning devoni hisoblanadi. Shoir devonida jamlangan diniy-tasavvufiy va axloqiy-didaktik mavzudagi asarlar shoirning tasavvufiy-falsafiy qarashlari hamda axloqiy-me'yoriy mulohazalarini o'zida aks ettiradi. Nozili Xo'jandiy devonidagi she'rlarni ilmiy jihatdan tahlil va tasnif qilishda ularning janr xususiyatlari bilan bir qatorda mavzuiy guruhlariga ajratish muhim ahamiyat kasb etadi. Chunki mavzu shoir ijodining g'oyaviy asosini belgilabgina qolmay, uning mumtoz adabiy an'analar bilan bog'liqligini ham ko'rsatadi.

Diniy-tasavvufiy. Bu mazmundagi she'rlarda ilohiy ishq, foniylilik va boqiylik, ma'oniylilm, nafs bilan kurash kabi g'oyalar ramziy obrazlar vositasida ifodalanadi.

Shoir devoning 3b betida quyidagi lirik she'r bor:

Kimi bu dunyoda gar bo'lmasa hayo anga,
Jazo kunida nazar solmag'ay Xudo anga.
Kimiki sunnatni zoye etti tark aylab,
Harom dedi shafoti Mustafo anga.
Tariqi bandalik uldurki, har ne qismat erur,
Takallum etmay darholdur rizo anga.
Jahon-jahon hama toatni aylasang xirman,
Umid tutma, agar donaye riyo anga.
Ko'ngulni oyinasin tiyra qildi dudi gunoh,
Sahar turub baroko'r diydadin jalo anga. [2:3b]

1-baytda "Kimi bu dunyoda gar bo'lmasa hayo anga"-deb inson hayosining fazilatini, agar u bo'lmasa "Jazo kuni"da (Qiyomatda) Xudo unga nazar solmasligini aytib o'tadi.

2-baytda "Kimiki sunnatni zoye etti tark aylab"-deb kim sunnatni tark etsa, "Jazo kunida" Payg'ambarimiz shafoti unga yetishmasligini aytib o'tadi.

3-baytda "Tariqi bandalik uldurki,har ne qismat erur"-deb bandalikning asli taqdirga neki bo'lsa qismat ekanligini, so'z aytmay ya'ni norozi bo'lmay rozi bo'lishlikni aytadi.


4-baytda "Jahon-jahon hama toatni aylasang xirman"-deb dunyoda ko'p toatni "xirman"qilsang ham, "Umid tutma, agar donaye riyo anga" deb inson o'tkinchi hayotda nimalarga e'tibor qaratishi va qanday yo'l tutishi haqida o'z fikrlarini bayon etib beradi.

5-baytda "Ko'ngulni oyinasin tiyra qildi dudi gunoh"-deb ko'ngil oynasini gunohning dudi "tiyra" qildi -deydi, "Sahar turub baroko'r diydadin jalo anga"-deb saharda tashqari chiqib ko'r "diydadin jalo anga"-deb ertalab shudring tushishini ko'zidan tushgan yoshga o'xshatmoqda.

Ushbu misralardan ma'lumki, Nozil bu she'rida insonning Allohga itoat etishi, Payg'ambarga ergashishi, umumiy olganda o'zini komil inson sifatida tarbiyalashi, har xil yomon ishlardan voz kechishligi, umrini yaxshiliklar bilan o'tkazishi lozimligini ta'kidlab o'tadi. Asarda shoir talmeh, tashbeh kabi badiiy san'atlardan unumli foydalangan.

12080/2 nusxaning 89a-betida payg'ambarimiz Muhammad (s.a.v)ga atalgan na't g'azal keltiriladi. G'azal yetti baytdan iborat, a-a, b-a, d-a, e-a, f-e shaklida qofiyalangan. G'azal mavzusi tasavvufiy hisoblanib, ayniqsa g'azaldagi "xohi inon-inonma" radifi she'rning musiqiyiligini, ishqiy-tasavvufiy ruhiyatni tasvirlashga xizmat

qilgan, qolaversa shoir Noziliy ushbu “xohi inon-inonma” radifini qo‘llashidan ma‘lumki, shoir Lutfiy ijodidan ham xabardor bo‘lgan. Quyida g‘azal tahlilini amalga oshiramiz, matni:



Shahanshoho gadoman xohi inon-inonma,
 Ishqingga muhtalomen xohi inon-inonma.
 Man oshiqi dilafgor vaslinga bas xaridor,
 Jon naqdi qo‘lda tayyor xohi inon-inonma.
 Darding mani qurbim darmoni yo‘q nasibam,
 Sen-sen mani hasbim xohi inon-inonma.
 Jannat sani jamoling, tuba qad-u kamoling,
 Dunyoda yo‘q misoling xohi inon-inonma.
 Sen bahri rahmat haq yak deb nur mutallaq,
 Man qatrai-am tassaduq xohi inon-inonma.
 Sevgon seni xudovand, beshak-u beshubha monand,
 Ojiz quling xiradmand xohi inon-inonma.
 “Ya ayyuhal Muzzamil”shoningda tobt takmil,
 Banda kamina Nozil xohi inon-inonma. [3:89a]

Birinchi misrada: oshiq o‘z ma‘shuqasini alqab unga “Shahanshoho” deya murojaat qiladi, o‘zini esa uning yonida go‘yo “gado” ekanligini aytadi, so‘zini “xohi inon-inonma” radifi bilan inkorsiz tasdiqni ifodalamoqchi bo‘ladi.

Ikkinchi misrada: oshiq bu tasdiqni yana kuchaytirib “ishqingga muhtaloman”-deya, bunga ishonsa-ishonmasa ochiq oydin oshkor narsa ekanligini bildiradi.

Uchinchi misrada: oshiq “men senining vaslingda dili vayron bo‘lgan oshiqman”, “bas xaridorman” deydi.

To‘rtinchi misrada: xaridorlik shu darajadaki, hatto “jon naqdi qo‘lda tayyor” ekanligini aytadi, bunga “xohi inon-inonma” deydi.

Beshinchi misrada: ma‘shuqaning har qanday dardi oshiq uchun ham dard ekanligini, hattoki darmoni (davosi) yo‘q nasibasi ekanligini aytadi.

Oltinchi misrada: oshiq “Sen-sen mani hasbim”-deya ma‘shuqasi unga kifoya ekanligini, bunga ham “xohi inon-inonma” deydi.

Yettinchi misrada: “Jannat sani jamoling”-deya yor yuzini jannatning jamoliga qiyoslaydi, “tuba qad-u kamoling”-deya yor qad-u kamolini tuba (eng yaxshi) deydi.

Sakkizinchi misrada: yorni alqashni davom ettirib “Dunyoda yo‘q misoling xohi inon-inonma” deydi.

To‘qqizinchi misrada: yorni alqashda davom etib “Sen bahri rahmat” deya “haq yak deb”(haqni yagona deb bilgan), “nur mutallaq” deydi.

O'ninchi misrada: oshiq endi o'zini zaif "Man qatrayi-am tassaduq xohi inon-inonma" deya, o'zini zaif qatradan yaratilganligini eslab o'tadi.


O'n birinchi misrada: yorini hattoki olamlar robbi Alloh ham sevishini aytib "Sevgon seni xudovand" deydi, bunga hech shubha yo'qligini aytadi.

O'n ikkinchi misrada: oshiq yana o'zini qul ekanligini, qul bo'lganda ham "xiradmand" (aqli,dono)qul ekanligini ta'kidlab o'tadi.

O'n uchinchi misrada: shoirning she'r yozishdagi maqsadi oydinlashib qoladi, ya'ni "Ya ayyuhal Muzzamil" surasini eslatib, boshidan boshlab she'r payg'ambarimiz na'tiga tegishli ekanligini anglatadi.

O'n to'rtinchi misrada: oshiq aslida shoirning o'zi ekanligini eslatib "Banda kamina Nozil xohi inon-inonma" deydi. Ushbu she'rdan ma'lumki, Nozil diniy ilmlarni yaxshi o'zlashtirgan va tasavvufiy-falsafiy mavzudagi she'rlarni yozishda salaf: Lutfiy, Navoiy, Jomiy va boshqa ustozlari an'analarini davom ettirgan.


Axloqiy-didaktik. Bu mavzudagi asarlarda insoniy fazilatlar, ilm va ma'rifat, odob-axloq, sabr-qanoat hamda adolat masalalari ilgari suriladi. Asarlarda insonlarni yaxshilikka targ'ib etish, yomonlikdan qaytarish, yaxshi xulqlar bilan xulqlanishni targ'ib etadi. Xususan, Nozil Xo'jandiy ijodida ham bunday g'oyadagi asarlar yetarlicha mavjud hisoblanadi. Shunday asarlardan inventar: 505 raqamli qo'lyozma nusxaning 221a betida quyidagi ruboiy keltiriladi:



Kim tavbag'a yor bo'ldi rahmatg'a yaqin,
El ko'zig'a turfa xor-u, g'iybatg'a yaqin,
Har yerda agar o'g'ri, muttaham bo'lsa ,
Bu yo'qtur ajabki bo'lsa ismat yaqin.[2:221a]


Ushbu didaktik ruhdagi ruboiyni tahlil etadigan bo'lsak, birinchi misrada shoir qanday inson Alloh rahmatiga yaqin bo'lishini aytadi, ya'ni yomon ishlardan, yomon axloqlardan tavba qilgan insonni "Kim tavbag'a yor bo'ldi"-deydi. Keyingi misrada "tavbag'a yor" bo'lgan insonni "el ko'zig'a" xor ko'rinishi va uni yomon isonlar g'iybat qilib yomonlashini aytadi. Keyingi misrada shoir yomon axloqli insonlarni eslab ular "Har yerda"-deydi. Keyingi misrada shoir har yerda o'g'ri, muttaham bo'lsa ham tavbaga yor inson u yerda bo'lmasligini, chunki "ismat yaqin" ya'ni pok axloqli ekanligini ta'kidlaydi. Ushbu ruboiydan bilishimiz mumkinki, Nozil o'z asarlarida yaxshi sifatlar: poklik, tavba, axloqli bo'lish, to'g'riso'zlik, adolat, sabr kabi sifatlarni maqtab, g'iybat, axloqsizlik, yolg'onchilik, behayolik, o'g'rilik kabi yomon illatlarni qoralagan.

Noziliy ruboiylarini axloqiy-tarbiyaviy, ishqiy, ijtimoiy mavzularda yozgan bo'lib, ruboiyning g'oyasi to'laroq ochilishi uchun mashhur xalq maqolidan keltirib, masal ruboiylarni yozadi. Misol uchun 12080/2 nusxaning 114b-betida quyidagi ruboiy keltiriladi:



O'lturmoqqa joyi yo'q, o'zini jahon chog'lar,
Yemog'a quruq non yo'q, dag'i burdatdin yog'lar,
Ahvoli zabun birla umri o'tadur, andog'
"Sichqon iniga sig'mas, ketiga sipand bog'lar". [3:114b]

Nozilning bu ruboiysi masal ruboiy hisoblanadi, ruboiyda maqtanchoq kimsaga ta'rif berib o'zi "O'lturmoqqa joyi yo'q," lekin "o'zini jahon chog'lar", deydi, keyingi misralarda ham maqtanchoqlik faqatgina ofat bo'lishini, umri doim zabun o'tishini aytib, "Sichqon iniga sig'mas, ketiga sipand bog'lar"-deya maqtanchoqlikning oxiri xorlik ekanligini, badiiy tasvir vositalari orqali yoritib bergan. 12080/2 nusxaning 114a-betida keltirilgan quyidagi ruboiyni tahlil etsak:



Kimki donodur aybni yopodur,
Badhavolik otin qachon chopadur,
Badnashr aduv, lain misoli erur,
It qutursa egasini qopadur. [3:114a]

Ushbu ruboiyda shoir dono insonga xos sifatlardan insonlarning aybini yopish va o'zining yomon istaklaridan voz kechishi kerakligini aytadi. Ruboiy an'anaviy pand-nasihati ruhida yozilgan, farqli tomoni Nozil uslubining o'ziga xos jihatlardan hisoblangan ruboiy oxirida masal keltirishi hisoblanadi. Birinchi misrada dononi ta'riflab "Kimki donodur aybni yopodur"-deydi. Ikkinchi misrada yana dononing bir sifati o'zining yomon istaklaridan, xoxishlaridan voz kecha olishini "Badhavolik otin qachon chopadur"-deydi. Uchinchi misrada dononing ziddi bo'lmish nodonni ta'riflab "badnashr"(yomonlikni yoyuvchi, tarqatuvchi) "aduv"ni, "lain misoli erur"-deydi. To'rtinchi misrada masal keltiradi ya'ni "It qutursa egasini qopadur"-deya hatto itning qorni to'yib, istaklari jilovlanmasa egasini qopishini masal qilib keltiradi, bu yerda insonning yomon istaklariga erk berishini itning quturishiga o'xshatgan deyishimiz mumkin.

Bu kabi asarlarni Noziliy ijodida ko'plab uchratishimiz mumkin. Bularning barchasi davr kishilariga nasihat shaklida yoki ba'zi o'rinlarda o'ziga nasihat shaklida bitgannini ko'rishimiz mumkin.

Xulosa o'rnida shuni aytishimiz mumkinki, Avaz Muhammad Noziliy Xo'jandiyni devonida jamlangan nazmiy namunalarining mavzuiy tasnifi shoir ijodiy tafakkurining rang-barangligini va badiiy qarashlarining keng qamrovli ekanini ko'rsatadi. Shoir she'riyatida ishqiy, diniy-tassavufiy, axloqiy-didaktik, ijtimoiy-tanqidiy

yo'nalishlar o'zaro uzviy bog'liq holda namoyon bo'lib, har bir yo'nalish muayyan davr ijtimoiy-ma'naviy muhitining badiiy in'ikosini ta'minlaydi.

Noziliy diniy-tasavvufiy asarlarida ilohiy ishq tarannumi, botiniy ilm, payg'ambarlarga na't va qur'on oyatlaridan misollar keltirilgan, axloqiy-didaktik asarlarida esa pand-nasihat, axloqiy kamolot, odob-axloq va insoniy fazilatlarini ulug'laydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Исҳоқов Ё., Валихўжаев Б., Қажумов А.П., Исҳоқов Ф.ва бошқалар. Ўзбек адабиёти тарихи . IV tom. – Toshkent: Фан. 1978. – В. 448.
2. Nozil Xo'jandiy. Devon. O'zR FA Sharqshunoslik instituti. Hamid Sulaymon fondi Inv. №505. – В. 240.
3. Nozil Xo'jandiy. Devon. O'zR FA Sharqshunoslik instituti. Asosiy fondi. №12080/2. – В. 119.